

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'RTA OSIYO TABIIY GEOGRAFIYASI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

**Kadirberganova Sohiba Uralboy qizi Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
sohibakadirberganova6971@gmail.com**

**Sobirova Nodira Jumanazar qizi Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” yo'nalishi 2-bosqich talabasi
snodira787@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqola Oliy ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasiga qaratilgan. Mavzu doirasida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining ahamiyati, ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash zarurligi, shuningdek, amaliy tadqiqotlar va o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari muhokama qilinadi. Maqola yanada samarali o'qitish metodlarini joriy etish orqali muammolarni hal etishni va talabalar qiziqishini oshirishga qaratilgan ko'rsatmalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, tabiiy geografiya, ta'lim metodikasi, innovatsion o'qitish, amaliyot, tadqiqot jarayoni

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу совершенствования методики преподавания естествознания Центральной Азии в высших учебных заведениях. В рамках темы обсуждается значение естественной географии Центральной Азии, необходимость использования инновационных методов и технологий в образовательном процессе, а также практические исследования и пути повышения эффективности обучения. В статье даны рекомендации по решению проблем и повышению интереса учащихся за счет внедрения более эффективных методов обучения.

Ключевые слова: Центральная Азия, естественная география, методика обучения, инновационное обучение, практика, исследовательский процесс

Abstract: This article is devoted to the issue of improving the methodology of teaching natural science of Central Asia in higher education institutions. The topic discusses the importance of the natural geography of Central Asia, the need to use



innovative methods and technologies in the educational process, as well as practical research and ways to improve the effectiveness of training. The article provides recommendations for solving problems and increasing the interest of students through the introduction of more effective teaching methods.

Key words: Central Asia, natural geography, teaching methods, innovative teaching, practice, research process

Kirish (Introduction) Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ta'lim tizimi jiddiy o'zgarishlarga duch keldi. Ta'lim muassasalarida talabalar uchun sifatli bilim berish maqsadida, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanining ahamiyati yanada o'sdi. Ushbu maqolada O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitish jarayonining muammolari va mavjud metodikalar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, innovatsion metodlarni qo'llash va amaliy o'qitish usullarini rivojlantirishga doir takliflar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanining o'qitilishi bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shulardan bir nechtasi: O'lkaning tabiati bir butun holda ham, alohida komponentlari bo'yicha ham chuqur o'rganila boshlardi. Bu borada N.L.Korjenevskiy, D.V.Nalivkin, S.S.Shul'ts, R.I.Abolin, Yu.A. Skvorsov, Ye.P.Korovin, D.N.Kashkarov, V.M.Chetirkin, I.A.Raykova, Q.Z.Zokirov va boshqalar bir qancha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar yaratdilar [1,5,6,7].

20-asrning 2-yarmida ham o'lka tabiatini kompleks o'rganish bo'yicha ishlarning borishi samarali bo'ldi. Ko'plab monografik asarlar yaratildi. Ularda O'rta Osiyo tabiatini chuqur tahlil qilish bilan bir vaqtda landshaftlarni xaritaga tushirish, tabiiy geografik rayonlashtirish, tabiiy geografik komplekslarni baholash taraqqiyotini bashoratlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish masalalariga ham katta e'tibor berilgan. Bunda geograf olimlar L.N.Babushkin, N.A.Kogay, N.D.Dolimov, M.Qoriyev, H.H.Hasanov, Z.M.Akromov, A.A.Rafiqov, P.Baratov, M.Mamatqulov, M.Umarov, A.Abdulqosimov, S.Nishonov, H.Vahobov, P.G'ulomov, Sh.Zokirov, I.Hasanov, A.Rahmatullayev, S.Abbosov, Yu.Sultonov, A.Mamatov, M.Halimov, R.Halimov, T.Jumaboyev kabi O'zbekistonlik geograf olimlarning ishlari diqqatga sazovordir. Ammo oliy ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitish metodlari bilan to'liq shug'ulanilmagan, faqat ayrim maqolalar yoki Boymirzayev

K. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan 2009. uslubiy qo'llanmani uchratishimiz mumkin [8].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Ushbu tadqiqot o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkaziladi, shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitishda qo'llaniladigan ma'ruza mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlarda turli metodlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqilgan. Quyidagi metodlarning ayrimlari keltirilgan; Interaktiv ta'lim metodlari bu metoddan foydalanganda talabalar o'rtasida muhokamalar va munozaralar tashkil etish, bu orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish va boshqa talabalar bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar kichik guruhlarga bo'linib, ma'lum bir mavzuni muhokama qilish yoki amaliyot bilan shug'ullanishadi.

Amaliy mashg'ulotlar darslarida geografik xaritalardan foydalanishda talabalarga amalda geografik bilimlarini qo'llash imkonini beradi. Landshaftlarni o'rganish va hududiy tadqiqotlar o'tkazish, bu orqali talabalar O'rta Osiyo tabiiy geografiyasining amaliy jihatlarini o'rganishadi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliy jihatdan o'zlashtirishlari uchun imkoniyat yaratish. Amaldagi ekologik va geografik muammolarni o'rganish va to'g'ridan-to'g'ri guvohi bo'lish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida biz quyidagi shakldagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil qildik. Jumladan barcha amaliy mashg'ulot mavzulariga oid dasturlar asosida tarqatma manbalar yaratildi. Bu jarayon talabalarni guruhlarda ishlash orqali amalga oshirildi. Mavzularni o'rganishda “Jeopardi”, “Tarsiya” jigsav Pazll dasturidan foydalaniladi.

“Tarsiya” jigsav Pazll dasturidan barcha dars jarayonlarida qo'llash imkoniyati mavjud. Tarsiya dasturi asosid tzilgan pazllardan yangi mavzuni o'rganishda, o'tilgan mavzuni takrorlashda, yangi mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin. Faqat bu pazldan foydalanishda electron dasturlardan foydalanish, kompyuter savodxonligiga ega bo'lishi lozim. Bu bo'yicha talabalarning barchasida konikma va malaka shakllantirildi [3,4].

Quyidagi tarzda Mavzular bo'yicha tarsiya Pazllar tuzildi.



2-rasm. Amaliy mashg'ulotlarda Tarsiya Pazlidan foydalanish jarayonlari.

Shuningdek, dars jarayonlarida multimedia va raqamli texnologiyalardan foydalanilmoqda. Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish. Videolar, taqdimotlar, interaktiv dasturlar orqali keng bilim beriladi. Online platformalar va resurslar yordamida masofaviy ta'lim imkoniyatlarini yaratish. Loyiha asosidagi o'qitish. Talabalar o'zlari muammoni tanlab, uni yechish yo'lida loyiha tayyorlashga jalb etilishi. Bu metod o'z-o'zini rivojlantirishga va ijodkorlikka turtki beradi [2].

Simulyatsiya va o'yin asosidagi metodlardan foydalanish. O'rta Osiyo tabiiy geografiasining muhim jihatlarini simulyatsiya qilish va rolli o'yinlar orqali o'rgatish. Ayniqsa, o'rganilish tarixi mavzularini amaliy mashg'ulotlarda tadbiq qilingan. Bu usul talabalarni qiziqtiradi va o'zaro munosabatlarni o'rganishga yordam beradi.

Ushbu metodlarni birlashtirib, o'qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli o'tkazish mumkin. O'rta Osiyo tabiiy geografiasini o'qitish natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'ladi, balki amaliy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar va seminarlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida, O'rta Osiyo tabiiy geografiasini o'qitish sifatini baholash uchun ko'plab faktlar yig'iladi va tahlil qilinadi.



Tahlil va natijalar (Analysis and results) Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitish jarayonida ko'plab muammolar mavjud: ta'lim dasturlarida fanning kam o'rin egallashi, an'anaviy o'qitish metodlarining afzalligi, amaliy mashg'ulotlarga e'tiborning yo'qligi. O'qituvchilar innovatsion metodlardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shuningdek, talabalar o'z bilimlarini amalda qo'llashda muammolarga duch kelishmoqda. Bu esa O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitish sifatini pasaytiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ushbu tadqiqot natijalari O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitishni takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Birinchi navbatda, ta'lim dasturlarida ushbu fanning o'qitish metodlari ustida ish olib borish, amaliy mashg'ulotlar va tadqiqotlarni rag'batlantirish lozim. Innovatsion o'qitish metodlarini joriy etish, talabalarni faol ishtirok etishga majbur qilish va ularni amaliy tajribalar bilan ta'minlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Баратов П.Р, Маматкулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. Дарслик. Тошкент “Ўқитувчи” 2002.
2. Boymirzayev K. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan 2009.
3. Xudayberganovna M. S., Olimboyevna O. I. МАКТАБ О 'QUVCHILARIDA WORDWALL DASTURIY O'YIN METODIDAN FOYDALANISH ASOSIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 11. – С. 318-322.
4. Matsaidova S. X., Raximova I. U. B. Q. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – С. 422-425.
5. Korjenevskiy N.L., Priroda Sredney Azii, T., 1960.
6. Qoriyev M., O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, 1968.
7. Hasanov I.A., G'ulomov P. N., O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, T., 2002.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografiya>

